

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOJXONA KODEKSI

I bo'lim. Umumiy qoidalar

1-bob. Asosiy qoidalar

1-modda. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlar

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvni, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

(1-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Bojxona to'g'risidagi qonunchilik

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik ushu Kodeksdan va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomalar qoidalari qo'llaniladi.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

Oldingi tahrirga qarang.

3-modda. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikning vaqt bo'yicha amal qilishi

Bojxona ishida bojxona organi bojxona deklaratsiyasini va boshqa hujjatlarni qabul qilib olgan kuni amalda bo'lgan qonunchilik qo'llaniladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik orqaga qaytish kuchiga ega emas va agar ushu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan bojxona to'g'risidagi qonunchilik orqaga qaytish kuchiga ega.

Bojxona to'lovlarini bekor qilish, bojxona to'lovlarini stavkalarini kamaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining majburiyatlarini bekor qilish yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda yengillashtirishni nazarda tutuvchi bojxona to'g'risidagi qonunchilik orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkin, agar bu bojxona to'g'risidagi qonunchilikda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan bo'lsa, bundan ushu moddaning *uchinchchi qismida* nazarda tutilgan hollar mustasno.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik bojxonaga oid huquqbazarlik sodir etilgan kunda amalda bo'lgan qonunchilik hujjatlari asosida qo'llaniladi.

(3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

4-modda. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi huquqlarining ustuvorligi

Oldingi tahrirga qarang.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikdagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining foydasiga talqin qilinadi.

(4-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2-bob. Ushbu Kodeksda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar

5-modda. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi va bojxona chegarasi

O'zbekiston Respublikasining quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustidagi havo hududi O'zbekiston Respublikasining bojxona hududini (bundan buyon matnda bojxona hududi deb yuritiladi) tashkil etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin, ularning hududlari, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi.

(5-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona hududi sarhadlari, shuningdek erkin bojxona zonalarining va erkin omborlarning tegralari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi hisoblanadi (bundan buyon matnda bojxona chegarasi deb yuritiladi).

6-modda. Bojxona maqsadlari

Bojxona maqsadlari quyidagilardan iborat:

Oldingi tahrirga qarang.

bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, tovarlarni tashish, saqlash va qayta ishlashda bojxona to'g'risidagi qonunchilikka riosa etilishini ta'minlash;

(6-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

bojxona to'lovlari o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishini ta'minlash;

iqtisodiy siyosat choralariga, bojxona rejimlarining talablari va shartlariga riosa etilishini ta'minlash;

Oldingi tahrirga qarang.

bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollariga chek qo'yish va ularning oldini olish.

(6-moddaning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7-modda. Vakolatli shaxs

Oldingi tahrirga qarang.

Tovarning va (yoki) transport vositasining egasi yoki tovarga va (yoki) transport vositasiga nisbatan bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq vakolatlarga ega bo'lgan yoxud tovarning va (yoki) transport vositasining egasi nomidan tegishli shartnomaga yoki ishonchnoma asosida ish ko'rvuchi shaxs vakolatli shaxsdir.

(7-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

8-modda. Yuridik va jismoniy shaxslar

Quyidagilar:

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiliga muvofiq tashkil etilgan tashkilot;

chet davlatning qonunchiliga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti;

O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonunchiliga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

(8-modda birinchi qismining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi xatboshilar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) jismoniy shaxslar hisoblanadi.

9-modda. Tovarning kuzatuv hujjatlari

Tijorat va transport hujjatlari tovarning kuzatuv hujjatlari hisoblanadi.

Tijorat hujjatlari jumlasiga hisobvaraq-faktura (invoys), yuklab jo'natish va o'rov varaqlari hamda tashqi savdo faoliyati va o'zga faoliyat amalga oshirilayotganda bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish bilan bog'liq bitimlar tuzilganligini tasdiqlash uchun foydalilaniladigan boshqa hujjatlar kiradi.

Transport hujjatlari jumlasiga konosament, yuk xati yoki tovarlarni tashish shartnomasi borligini tasdiqlovchi hamda shunday tashishda kuzatib boruvchi boshqa hujjat kiradi.

10-modda. Tovarning o'zgarmas holati

Tovarning o'zgarmas holati tovar bojxona rejimiga joylashtirilayotgan paytdagi barcha xossalalarining bojxona rejimi amal qilishining tugallanish paytida o'sha hajmlarda but saqlanib qolishidir, bundan tovarning tabiiy tarzda eskirishi yoki uni tashish va (yoki) saqlashning normal sharoitlarida kamayishi oqibatida ro'y bergan o'zgarishlar mustasno.

11-modda. Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi

Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi qayta ishlash jarayonida ishlatiladigan tovarlar miqdorining bitta birligidan ishlab chiqarish jarayoniga muvofiq olinadigan qayta ishlangan mahsulotlarning mutlaq qiymatdagi yoki foiz nisbatidagi miqdori hisoblanadi.

12-modda. Tovarning but saqlanishini ta'minlashga doir operatsiyalar

Tovarning but saqlanishini ta'minlashga doir operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

tozalash, shamollatish, quritish, shu jumladan iliq havoni vujudga keltirib quritish; saqlashning maqbul harorat rejimini yaratish, shu jumladan sovitish, muzlatish, isitish; himoya o'roviga o'rash, himoyalovchi moyni va konservantlarni surtish; zanglashdan himoya qilish uchun bo'yash, muhofazalovchi moddalar bilan ihotalash; korroziyaga qarshi qoplama surtish.

Oldingi tahririga qarang.

Tovarlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tovarning but saqlanishini ta'minlashga doir operatsiyalar jumlasiga qonunchilikka muvofiq boshqa turdag'i operatsiyalar ham kiritilishi mumkin.

*(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y, 03/21/683/0375-soni)*

13-modda. Tovar va transport vositasi

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, valyuta boyliklari va boshqa qimmatli qog'ozlar, elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari, intellektual mulk obyektlari, transport vositasi tovar hisoblanadi, bundan ushbu moddaning *to'rtinchi qismida* ko'rsatilgan transport vositasi mustasno.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovar yoxud bojxona hududida erkin muomalaga chiqarilgan yoki ushbu Kodeksga muvofiq shunday maqomga ega bo'lgan tovar O'zbekiston tovaridir.

Ushbu moddaning *ikkinchi qismida* ko'rsatilmagan tovar, shuningdek ushbu Kodeksga muvofiq chet el tovari maqomini olgan tovar chet el tovaridir.

Tovarlarni va yo'lovchilarni tashish uchun foydalilaniladigan vosita transport vositasidir. Transport vositasi har qanday suv kemasini, havo kemasini, avtotransport vositasini, temir yo'l transport vositasini (temir yo'lning harakatdagi tarkibini, temir yo'l harakatdagi tarkibining bir qismini) yoki konteynerni, shuningdek ularning o'z konstruksiyasiga muvofiq texnik pasportlarida yoki texnik formulalarida nazarda tutilgan ehtiyyot qismlarni, anjomlarni va uskunalarni, suyuqlik saqlash idishlaridagi yoqilg'i-moylash materiallarini, sovutuvchi va boshqa xil texnik suyuqliklarni, agar ular mazkur transport vositalari bilan birga tashilayotgan bo'lsa, o'z ichiga oladi.

14-modda. Engib bo'lmas kuch ta'siri

Tabiat hodisalari (zilzilalar, yer ko'chishlari, dovullar, qurg'oqchiliklar va hokazo) yoki yuridik va jismoniy shaxslarning xohish-irodasi hamda xatti-harakatlariga bog'liq bo'limgan boshqa holatlar sababli kelib chiqqan, shuning oqibatida mazkur shaxslar qabul qilgan majburiyatlarini bajara olmaydigan favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan, kutilmagan holatlar yengib bo'lmash kuch ta'siri hisoblanadi.

15-modda. Ushbu Kodeksda qo'llaniladigan boshqa tushunchalar

Ushbu Kodeksda qo'llaniladigan boshqa tushunchalar:

Oldingi tahrirga qarang.

bojxona brokeri — bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni deklarantning yoki vakolatli shaxsning topshirig'iga binoan va uning nomidan shartnoma asosida amalga oshiradigan, O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi;

(15-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-oktabrdagi O'RQ-494-soni Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018-y., 03/18/494/1992-sin)

Oldingi tahrirga qarang.

bojxona ishi — iqtisodiy, tartibga solish va huquqni muhofaza qilish maqsadlariga erishishga qaratilgan, bojxona to'g'risidagi qonunchilikka riosa etilishini ta'minlaydigan usullar va vositalar majmui;

(15-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-sin)

bojxona hamrohligida kuzatib borish — avtotransport vositalarining bojxona organlari tomonidan bojxona nazorati ostida kuzatib borilishi;

bojxona operatsiyasi — tovarlarning va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvida tovarlarga va transport vositalariga nisbatan bojxona organlarining mansabdor shaxsi va (yoki) vakolatli shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat;

bojxona rejimi — bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui;

bojxona tartib-taomili — bojxona maqsadlari uchun amalga oshiriladigan bojxona operatsiyalarining majmui;

deklarant — tovarlarni va (yoki) transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi shaxs yoxud uning nomidan tovarlar va (yoki) transport vositalari deklaratsiyalanayotgan shaxs;

deklaratsiyalash — bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va (yoki) bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va (yoki) transport vositalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni bojxona organlariga ma'lum qilish;

iqtisodiy siyosat choraları — tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirishga va ushu hududdan olib chiqishga doir cheklovlar bo'lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solishning boshqa chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi;

tashuvchi — bojxona nazorati ostida turgan tovarlar tashilishini amalga oshiruvchi yoki transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul shaxs;

tovar turkumi — bitta oluvchining manziliga bitta transport hujjati bo'yicha kelayotgan yoki bitta pochta yuk xati bilan jo'natilayotgan yoxud bojxona chegarasi orqali o'tayotgan bitta jismoniy shaxsning qo'l yukida va bagajida olib o'tilayotgan tovar yoki uning bir qismi;

tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish — tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirish yoxud ushu hududdan olib chiqish;

tovarlarning erkin muomalasi — bojxona hududida tovarlarning belgilangan taqiqlar va cheklovlarsiz aylanishi;

tovarni chiqarib yuborish — bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvini yakunlovchi va ma'lum qilingan bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqqan holda tovarlardan foydalanishga va (yoki) ularni tasarruf etishga ruxsat berilganligini ifodalovchi harakati;

yuk operatsiyalari — bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ularning buzilgan o'rovlarini to'g'rilash, ularni o'rash, qayta

o'rash va tashish uchun qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (bojxona organlarining axborot tizimi) — bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning va transport vositalarining bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ularga doir hujjatlar va ma'lumotlarning kiritilishini, hisobga olinishini hamda monitoring qilinishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining avtomatlashtirilgan tizimi.

3-bob. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish

16-modda. Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish shartlari

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bevosita bojxona chegarasi orqali olib o'tishga qaratilgan harakatlardan jumlasiga quyidagilar kiradi:

bojxona chegarasini kesib o'tayotgan jismoniy shaxsning bojxona nazorati zonasiga kirishi;

transport vositasining bojxona chegarasini kesib o'tish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o'tkazish punktiga kirishi;

bojxona hududiga yo'llash yoki ushbu hududdan tashqariga jo'natish uchun tovarlarni transport tashkilotlariga yoxud xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini pochta aloqasi operatorlari va provayderlariga topshirish;

Oldingi tahririga qarang.

jismoniy shaxsning qonunchilikka muvofiq belgilanmagan joylardan tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan bojxona chegarasini amalda kesib o'tishga qaratilgan harakatlari.

(16-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirish shartlari tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan bojxona chegarasini amalda kesib o'tishdan hamda ushbu tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan keyingi barcha harakatlarni ular bojxona organlari tomonidan chiqarib yuborilguniga qadar amalga oshirishdan iborat.

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda tashuvchi ularni tayinlangan bojxona organi joylashgan yerga yoki boshqa joyga ushbu Kodeksning 218-moddasida belgilangan muddatlarda yetkazib berishi shart. Bunda tovarlarning holatini o'zgartirishga yoki ularning o'rovini buzishga, shuningdek qo'yilgan plombalarga, muhrlarga va bojxona identifikatsiyasining boshqa vositalariga shikast yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bojxona deklaratsiyasini berish yoki ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatib o'tilgan, tovarlarni va (yoki) transport vositalarini mazkur hududdan bevosita olib chiqishga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish, shuningdek tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan keyingi barcha harakatlarni ular amalda bojxona chegarasini kesib o'tguniga qadar bajarish tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududidan olib chiqish shartlari hisoblanadi.

Tovarlarni bojxona hududidan olib chiqishga ular ushbu Kodeksga muvofiq olib chiqilayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan tegishli bojxona rejimiga joylashtirilganidan so'ng yo'l qo'yiladi. Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkazilmasdan mazkur hududdan olib chiqilishi mumkin emas. Bojxona nazorati tashuvchining tovarlarni va (yoki) transport vositalarini olib chiqish niyati borligidan oldindan xabardor qilish asosida bojxona organi tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini hamda valyuta boyliklarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

(16-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

17-modda. Tovarlar va (yoki) transport vositalari olib kirilishidan (olib chiqilishidan) bojxona organlarini xabardor qilish

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda tashuvchi bojxona organini bojxona chegarasini kesib o'tishidan xabardor qilishi shart.